



**MDH MAMLAKATLARI, CHET EL FUQAROLARI, FUQAROLIGI
BO'L MAGAN SHAXSLARNING VA O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASINING XORIJDA YASHOVCHI FUQAROLARINING
NIKOHINI QAYD ETDIRISH TARTIBI**

Zulfizar Sayfiyeva

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani

FYDYO bôlimi 1-toifali inspektori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7539582>

Hozirgi davrga kelib internet, transport, uzoq davlatlarga sayohat qilish, qiyinchilik tug'dirmaydigan oddiy holga aylanib ulgurdi. Davlatimiz ham dunyoning barcha mamlakatlari bilan do'stona va yaqin qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishga va uni mustahkamlashga qaratilgan oqilona siyosat yo'lidan borib, buning natijasida buyuk tarixga ega xalqimiz ham turfa davlatlar madaniyati, tili, dini, ta'lim va o'ziga xos urf odatlari bilan yaqindan tanishish uchun juda ajoyib imkoniyatga ega bo'ldi. Tabiiyki davlatlar o'rtasidagi bunday do'stona aloqalar davomida bir davlatdan boshqa davlatga kelib, bu yerning urf odatlari va insonlar orasidagi mehr oqibatni ko'rib ko'nglida o'sha yurtdan go'zal bir ⁵qiz topib oila qurish istagi paydo bo'ladigan yoshlarimiz ham topiladi albatta. Xo'sh yurtimiz FXDYO tizimida bu hol qanday tartibda qonuniy va oqilana tarzda hal etilgan ekan?! Quyidagi maqolamizda aynan shu masalada o'zingizga qiziqarli bo'lgan barcha savollariningizga to'g'ridan to'g'ri javob olasiz. O'zbekiston Respublikasining oila kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi FXDYO organlarida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarining MDH mamlakatlari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'l magan shaxslar bilan nikohni qonuniy qayd etish hamda chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohni qayd etish umumiylashtirishda amalga oshiriladi.

-O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi va chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'l magan shaxalar o'rtasidagi nikohni qayd etish agar chet el fuqarosining yoki fuqaroligi boplmagan shaxsning O'zbekiston Respublikasida bo'lish vizasi nikoh tuziladigan kunda haqiqiy bo'lsagina amalga oshiriladi.

-bunda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'l magan shaxsning nikohga kirish haqidagi arizasiga uning shaxsini tasdiqllovchi hujjat nusxasi hamda chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'l magan shaxsning nikohda turmasligi haqidagi belgilangan tartibda legolizatsiya qilingan yoki apostil qo'yilgan hujjat (davlat tilidagi tarjimasi bilan birga) ilova qilinishi lozim.

-FXDYO organi tomonidan nikoh qayd etilgandan keyin O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi bilan nikohga kirgan shaxs fuqarosi bo'lgan xorijiy dqvlatga nikoh tuzilganligi to'g'risidagi xabarnoma belgilangan tartibda yuboriladi.



-chet elda doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarosining nikohini qayd etish o'sha davlat qonunchiligiga asosan uning vakolatli organlari tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalarida ushbu qoidalarga asosan amalga oshiriladi.

Boshqa davlatda yashovchi O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bilan mazkur davlatning tegishli organlarida nikohni qayd ettirmoqchi bôlgan ôsha davlat fuqarosining iltimosiga kôra ,konsul nikohni qayd etuvchi ôsha davlat organlariga taqdim etish uchun ariza beruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi nikohda turmasligi haqida ma'lumotnomma berishi mumkin .

-bunday ma'lumotnomalar konsullik muassasalarida mavjud bôlgan ma'lumotnomalar asosida beriladi.

-agar konsullik muassasida nikohlanuvchi shaxsning oilaviy ahvoli tôgrisida ma'lumotlar bôlmasa konsul bu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi orqali O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligidan oladi.

Bir so'z bilan aytganda oila deb atalmish muqaddas maskanni qonuniy asosda barpo etib, unda umr guzaronlik qilish, solih va soliha, el-yurtimoz un nafi tegadigan farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun yurtimizda barcha shart sharoitlar yaratilgan. Chet el fuqarosi bn nikohga kirgan o'z.res. Fuqarosi FXDYO organlarida nikohdan o'tgach uning taqdiri davlatimiz qonun qoidqlari bilan muhofazaga olinadi va baxtli kelajak uchun ishonchli asos boplib xizmat qiladi. Yangi O'zbekiston Respublikasining bugungi ochiqlik, xalq manfaatlari uchun olib borayotgan oqilona, yaqin qo'shnichilikka asoslangan yangicha siyosati natijasida chet el fuqarolari bilan tuziladigan nikoh shartnomalarini qayd etishda ko'zga ko'rinarli yengilliklar yaratildiki bu xalqimiz uchun ortiqcha ovoragarchilk va mablag'ning tejalishiga yordam beryapdi. Qolaversa boshqa boshqa davlat fuqarolari o'rtasida qayd etilgan nikoh millatlar va davlatlar orasidagi ijobiy aloqalarning kengayishi, xalqlar orasidagi do'stlik va qo'nish qo'shnichilik an'analarining yanada mustahkamlanishi uchun yanada kuchli turtki bo'lishi azal azaldan barchamizga ma'lum. FXDYO organlarida fuqarolar uchun yaratiladigan yengillik va imkoniyatlar boshqa tomondan ikki begona davlat fuqarolari o'rtasidagi do'stlik va oqibatning shakllanishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Demak fxdyo organlariga bir so'z bilan do'stlik va birodarlik elchixonasi deya ta'rif bersa arziyi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. M Yu Tirkashev, NB Eshtemirov, «FACTORS OF EFFECTIVE USE OF MECHANISMS TO IMPROVE FINANCIAL CONTROL», 2022, Вестник магистратуры, 3-2 (126), 111-112 с.;



2. Djurakulovich Ziyadullaev Makhmudjon. (2022). YESTERDAY'S, TODAY'S AND FUTURE PENSION REFORMS IN UZBEKISTAN. Conference Zone, 119–121. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/362> ;
3. Махмуджон Зиядуллаев (2021). Право на социальное обеспечение в Узбекистане и радикальные реформы, проведенные в пенсионном секторе в 2017-2021 годах. Общество и инновации, 2 (8/S), 121-127. Doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp121-127 ;